

## **XITOY TILI DOIRASIDA TIL MATERİALLARINI AKSIOLOGİK BAHOLASHGA DOİR MULOHAZALAR**



<https://doi.org/10.5281/zenodo.7333648>

**Irgasheva Umida Asqarjon qizi**

O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti,  
Xitoy tili nazariyasi va amaliyoti kafedrasi o‘qituvchisi  
[umida.0402@mail.ru](mailto:umida.0402@mail.ru)

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada tilshunoslikka sekin-asta o‘z yo‘nalishlari bilan kirib borayotgan falsafiy yo‘nalish aksiologiyaning o‘ziga xos xususiyatlari va uning til materiallarida qanday ifodalanishi, shu bilan birga insonga baho berish uchun ishlataladigan frazeologik birliklarning qanday tarzda tashkil topishi va ularning jamiyatda ishlatalishiga ko‘ra turlarga ajratilish masalalari ko‘rib chiqilgan.

**Kalit so‘zlar:** lingvistik aksiologiya, kategoriya, frazeologik birliklar, lingvomadaniyat, aksiosfera, qiymat komponenti, madaniyat, ruhiyat, subyektiv baho, qadriyat, strukturalizm.

## **REFLECTIONS ON THE AXIOLOGICAL ASSESSMENT OF LANGUAGE MATERIALS WITHIN THE FRAMEWORK OF THE CHINESE LANGUAGE**

**Irgasheva Umida Asqarjon qizi**

Chinese language teacher

Departments of Theory and Practice of

Chinese language, UzSWLU

[umida.0402@mail.ru](mailto:umida.0402@mail.ru)

**Annotation:** this article examines the specific features of Axiology and how it is expressed in language materials, as well as the issues of how phraseological units used to evaluate a person are organized and divided into types according to their use in society.

**Keywords:** linguistic Axiology, category, phraseological units, linguocultural, axiosphere, value component, culture, psyche, subjective assessment, value, structuralism.

### **KIRISH**

Zamonaviy tilshunoslikda so‘nggi yillarda aksiologiya bilan bog‘liq kategoriyalar va terminlar tilshunos olimlarning tadqiqotlarida paydo bo‘la boshladi. Shu sababdan, ko‘plab taniqli tadqiqotchilar (A.A. Ivin, N.D. Arutyunova, E.M. Volf, S.G. Pavlov, E.F. Serebryannikova) lingvistik aksiologiyani fanga kiritishni taklif qilib kelmoqdalar. Aksiologik tilshunoslikni bir qator tilshunoslik doirasida qo‘llaniladigan tadqiqot yondashuvi deb hisoblash mumkin: etnolingvistika, ijtimoiy diskursni tahlil qilish, lingvokulturologiya, siyosiy tilshunoslik va boshqalar. Lingvistik aksiologiyaning obyekti sifatida S.G. Pavlov “til – ong – jamiyat – madaniyat – inson” majmuasini ko‘rib chiqadi. Lingvoaksiologiyaning predmeti - tilning qadriyatlarni shakllantirish va ifoda etish vositasi sifatida namoyon bo‘lishi hisoblanadi. Aksiologik tadqiqotning vazifasi til birligi yoki fikr, mulohazaning qiymat komponentini aniqlashdir. Tilni aksiologik tahlil qilishning maqsadi – dunyoning lingvistik manzarasi aksiosferasini va turli xil ijtimoiy guruhlar va idiolektlarning aksiosferalarini rekonstruktsiya qilishdir [Павлов 2013: 56].

Aksiologiyaning shakllanishi asosan klassik faylasuflarning yutuqlari asosida “madaniyat va ruhiyat fanlari”ning umumiy shakllanishi kontekstida sodir bo‘ldi: dastlab yunonlar – Platon, Aristotel va undan keyin Evropa klassik faylasuflari I. Kant, G.V. Hegel va boshqalar.

Aksiologiyaning rivojlanishiga hayot falsafasi vakillari (F. Nitsshe, V. Diltey, M. Scheler) va neokantian falsafiy maktablari (Baden va Magdeburg: G. Kogen, E. Kassirer, V. Vindelband, G. Rikkert) eng katta hissa qo'shdilar, ular aksiologiyaning falsafiy asoslarini yaratdilar. Shu o'rinda rus faylasuflari V.S. Solovyov, I.A. Ilyin, N.O. Losskiy ham ushbu sohaga o'z hissalarini qo'shgan [Барышков 2009: 65].

Aksiologiya qadriyatlar olamining bir tizimi bo'lib, qadriyatlarning ijtimoiy-madaniy munosabatlarda qanday qiymat (baho)ga ega ekanligini o'rganuvchi fandir.

T.V.Yegorovaning "Zamonaviy rus tilining xorijiy so'zlari lug'ati" da aksiologiyaga quyidagicha ta'rif keltirilgan:

Aksiologiya (grek. *axios qadriyat + logos ilm-fan, ta'lim, ta'limot*) – qadriyatlar haqidagi falsafiy ta'limot bo'lib, obyektiv va tarixiy jihatdan tan olingan axloqiy, estetik va boshqa qadriyatlar [Еропова 2014:26].

Aksiologiya – ijtimoiy madaniyat va jamiyat qonunlariga muvofiq inson hayotining umuminsoniy asoslarini o'rganish va tavsiflashga qaratilgan fan.

Jahon tilshunosligida XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab til toifasi akademik jamoatchilik e'tiborini va qiziqishini jalb qila boshladi. Bunday rivojlanish bosqichlarida falsafiy ta'limotlar va tilshunoslik fanlarining o'zaro birgalikda namoyon bo'lishi kuzatila boshladi. Bunday ko'rinishlarga misol tariqasida aksiologiyaning baholash me'zonlari til komponentlari yordamida tahlil qilina boshlanganligini aytish mumkin. Katta aspektlar nuqtai nazaridan taxminan to'rtta imkoniyat vujudga keldi: birinchidan, bu insonning dunyoni bilishi, dunyoni o'zgartirishi va dunyoni ifoda etishi uchun nutqni ifodalashning zarur shakli; ikkinchidan, u til shakllarini ifodalashda muntazamlikka ega; uchinchidan, nazariy nuqtai nazarlarning xilma-xilligi hisobga olinadi; va to'rtinchidan, paydo bo'lgan til hodisasi pragmatik rivojlanishni keltirib chiqardi. Xitoy tilini o'rganish va undagi til manbaalarini baholash asta-sekin dolzarb mavzuga aylanib bormoqda va bu to'rt jihat to'g'ridan-to'g'ri yoki bilvosita bir-biriga bog'liqdir, ayniqsa nazariy nuqtai nazarlarning xilma-xilligi, bu oxir-oqibat baholash tili tadqiqotlarini har tomonlama o'rganish va chuqur rivojlantirishga yordam berdi. Nazariyalar va usullarning o'zgarishi tadqiqot xususiyatlari bilan chambarchas bog'liq bo'lganligi sababli, hozirgi vaziyat birinchisining kontekstiga qarab saralanadi.

*Strukturalizm va leksik-semantik nazariya doirasida baholash so'zlari va jumlalarini o'rganish. So'z turkumlari masalalarini muhokama qilishda aytib o'tilgan baholovchi mulohazalar.*

XX asr 80-yillarning boshlariga qadar strukturalistik nazariy usullar ustunlik qildi. Ushbu bosqichda baholash tilini o'rganish asosan tarqoq ishlarga asoslangan bo'lib, tadqiqot natijalari so'z turkumlarining ikkita asosiy qismini muhokama qilishda tarqoq edi. Bu borada quyidagi muammolar mavjud bo'lgan: birinchidan, so'z turkumlarining quyi toifalarini ajratishda Chao Yuanjen [赵元任 1979:346] ergash gaplarning quyi toifasida "baholovchi ravishlar" toifasini, Chju Dexi [朱德熙 1980: 65] esa fe'llarning quyi toifasida 值得 (zhídé – arzimoq, munosib bo'lmoq) va 配 (pèi – mos kelmoq, munosib bo'lmoq) fe'lini alohida-alohida "baholovchi fe'l" sifatida sanab o'tadi. Ikkinchidan, sifatlarning bir-biriga o'xshash shakllarini muhokama qilishda bir qator olimlar ularning subyektiv baholash ta'siriga ega ekanligini ta'kidlaganlar. Masalan, Feng Chenglin [冯成麟 1954:22] bir-birining o'rnida qo'llanishi mumkin bo'lgan "chalkash" ko'rinishdagagi reduplikatsiya shakllari nafrat tuyg'usini keltirib chiqarishini ta'kidlab o'tgan; Li Jinxi ham 1959 yilda sifatlarning bir-biriga o'xshash shakllari ma'lum bir qo'shimcha ma'nolarni keltirib chiqarishi mumkin deb hisoblagan; Guo Shaoyu 1979 yilda AABB uslubidagi sifatlar tovushni idrok etish nuqtai nazaridan subyektiv vokal hissiyotlarini ifodalashda ham rol o'ynaydi, deb hisoblaydi. Chju Dexi [朱德熙 1980:78] sifatlarning murakkab shaklda ifodalangan atributlarning barchasi miqdor tushunchasi bilan bog'liqligini yoki ma'ruzachining hissiy bo'yoqdlorligini o'z ichiga olgan ushbu atributni subyektiv baholash uslubi deb ataydi.

Yuqorida aytib o‘tilgan xitoylik olimlarning fikrlaridan kelib chiqqan holda shuni aytish mumkinki, xitoy tilida lingvistik kategoriya sifatida baholashga tizimli tadqiqotlar va nazariy e’tibor xorijiy davlatlarga qaraganda bir oz kechroq boshlangan, ammo xitoy tili baholash hodisalariga alohida e’tibor berishning uzoq tarixiga va o‘ziga xos xususiyatga ega. Xitoy tilida baholash bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlarni uch turga bo‘lib o‘rganish mumkin: tarqoq asarlar, maqtov va tanqidning ma’nosini muhokama qilish, eksperimental tizimni qurish va turli nuqtai nazarni o‘rganishdan iborat.

Rus tili doirasida baholash tilini o‘rganish asosan lug‘at-semantika nazariyasi kontekstida olib boriladi. Ingliz tili doirasida baholash tilini o‘rganish asosan Martinning tizimli funksional tilshunoslik maktabining baholash nazariyasi doirasida amalga oshiriladi va uning tadqiqot bazasi aniq yoritilib berilgan hisoblanadi. Baholash tilini rus va ingliz tadqiqotlari bilan taqqoslaganda, xitoy baholash tilini tadqiq qilishning nazariy asoslari murakkab, ko‘plab nuqtai nazarlar aniq va tadqiqot g‘oyalari yetarlicha birlashtirilmagan. Uning afzallikkleri va kamchiliklari asosan quyidagilarda namoyon bo‘ladi:

Birinchidan, ko‘plab mikro yutuqlar mavjud va makro tadqiqotlar tizimi yetarli emas. Xitoy tili doirasida baholash tilini o‘rganishda qanday nazariy qo‘llanma qo‘llanilishidan qat‘iy nazar unda mikro baholash ifodalarini tavsiflash va talqin qilishga ko‘proq e’tibor beriladi. Umuman olganda, xitoy tilini baholash bo‘yicha til tadqiqotlari hali ham nisbatan tarqoqdir. Tizimni qurish ehtiyoji mavjud bo‘lsa-da, u o‘z-o‘zidan yozish holatidan ongli ravishda o‘rganish bosqichiga kirgan bo‘lsa-da, makro tadqiqotlarda qat‘iy tizimlashtirish yo‘q va tizimli ravishda xitoy tili doirasida til materiallarini baholash yetarli darajada mukammal emas.

Ikkinchidan, ko‘proq tavsif va tushuntirishlar mavjud, lekin funksional tushuntirish darajasi hali chuqur emas. Uning mikrospesifik tadqiqotlariga kelsak, xitoy tili baholash faktlari birin-ketin tadqiq etilayotgan bo‘lsa-da, ular hali keng qamrovli emas.

Uchinchidan, aniq til hodisalari haqida ko‘plab munozaralar mavjud, baholash tilining tabiatini va u bilan bog‘liq nazariy masalalar bo‘yicha munozaralar yetarli emas. Baholash atributlari, tilning subyektivligi, baholashning subyektivligi, baholash va tavsiflash o‘rtasidagi munosabatlari, baholash va tegishli til toifalari o‘rtasidagi munosabatlari va boshqalar kabi ushbu asosiy nazariy masalalarni tushunmaslik baholash tizimining umumiy tuzilishiga ma’lum bir tarzda ta’sir qiladi.

To‘rtinchidan, baholash manbalarini muhokama qilishda dominant leksik darajaga va mustahkam yashirin grammatik darajaga ko‘proq e’tibor qaratiladi, leksik daraja, odatiy grammatik daraja, fonologik ritm darajasi va pragmatik darajani o‘rganish bo‘yicha ilmiy ishlari hozirda yetarli emas.

Beshinchidan, xitoy tili doirasida aksiologik baholashga oid lingvistik tadqiqotlarga kam e’tibor qaratilayotganligi yaqqol sezilmoqda.

Xitoy tili doirasida til materiallarini aksiologik baholashga misol tariqasida ayrim frazeologizmlarni keltirib o‘tish mumkin, bunda biz pragmatik, emotsiyal, etik, estetik, intellektual, valeologik baho turlarini ko‘rib chiqamiz:

Pragmatik baho unsurlari mavjud bo‘lgan frazeologizmlar qatoriga quyidagilarni kiritish mumkin: 有市场; 吃得开; 吃香 – bozori chaqqon; 如释重负 – bo‘ynidan soqit qilmoq; 用针挖井 – igna bilan quduq qazimoq.

Emotsional baho unsurlari mavjud bo‘lgan frazeologizmlar qatoriga quyidagilarni kiritish mumkin: 气歪嘴 – avzoyi buzildi; 铁石心肠 – bag‘ri tosh; 乐翻天; 喜不自禁 – boshi osmonda.

Etik baho unsurlari mavjud bo‘lgan frazeologizmlar qatoriga quyidagilarni kiritish mumkin: 明辨是非 – oq-qorani tanimoq; 亲密无间 – oralaridan qil ham o‘tmaydi; 以德报怨 – tosh otganga osh ot.

Estetik baho unsurlari mavjud bo‘lgan frazeologizmlar qatoriga quyidagilarni kiritish mumkin: 秀色可餐 – bir qoshiq suv bilan yutib yuborgudek; 引人注目 – diqqatini tortmoq; 称心如意 – ko‘ngliga o‘tirmoq.

Intellektual baho unsurlari mavjud bo‘lgan frazeologizmlar qatoriga quyidagilarni kiritish mumkin: 欺人之谈 – aldagani bola yaxshi; 三岁看大，七岁看老 – bola boshidan ma’lum; 切中要害 – ishning ko‘zini bilmoq.

Valeologik baho unsurlari mavjud bo‘lgan frazeologizmlar qatoriga quyidagilarni kiritish mumkin: 心力交瘁 – jonida jon qolmadi; 先看脸色再问好；察言观色 – rang ko‘r, hol so‘r; 须发皆白 – soqoli oqardi.

Xitoy tili doirasida baholash tadqiqotining xususiyatlarini yuqoridagi tushunchalarga va ushbu sohada rus va ingliz tillarini o‘rganish tajribasiga asoslanib, biz kelajakda xitoy tili til materiallarini baholash bo‘yicha tadqiqotlar quyidagi to‘rt jihatga qaratilishi kerak deb hisoblaymiz: biringchidan, baholash tilining tabiatи va tegishli nazariy masalalar bo‘yicha munozarani kuchaytirish; ikkinchidan, xitoy tilining baholash shakli va ma’nosini statistik o‘rganishni kuchaytirish va xitoy tilining o‘ziga xos xususiyatlariga mos keladigan baholash tili tizimini yaratish; uchinchidan, xitoy tili turli til tuzilmalarini dinamik o‘rganishga e’tibor qaratib, nutq aloqasi va o‘zaro ta’siri nuqtai nazaridan baholash va diskursiv istiqbollarni yaratish; to‘rtinchidan, kognitiv va funksional tushuntirishlarni kuchaytirib, baholash tilining takomillashtirilgan tavsifiga e’tibor berish; beshinchidan, baholash tili va unga tegishli til toifalari bo‘yicha interaktiv tadqiqotlarni kuchaytirish, masalan, frazeologik birliklar, modallik, aloqa, ohang, shaxsiyat, daraja va boshqa toifalar bo‘yicha ko‘plab tadqiqotlar o‘tkazish xitoy tili doirasida aksiologik baholashni rivojlantirishga katta hissa qo‘sadi deb xulosa qilishimiz mumkin.

#### **ADABIYOTLAR (REFERENCES)**

1. Павлов С. Г. Лингвоаксиологическая модель человека: научнометодический аспект/С. Г. Павлов // Вестник Минского университета. – Минск., - 2013
2. Барышков, В. П. Аксиология: учебное пособие//Саратов., - 2009.
3. Егорова Т.В. Словарь иностранных слов современного русского языка//Москва., - 2014.
4. 赵元任. 汉语口语语法. //商务印书馆.北京., - 1968/1979.
5. 朱德熙. 现代汉语语法研究.// 商务印书馆. 北京., - 1980.
6. 冯成麟. 现代汉语形容词重叠式的感情作用. // 中国语文., 1954.
7. 转引自王茂松. 汉语语法研究参考资料. //中国社会科学出版社. 北京., 1983.
8. Зиямухамедов, Д. Т. (2021). КОНЦЕПЦИЯ ОБЩЕСТВА И ЧЕЛОВЕКА В НОВЕЛЛАХ ПУ СУНЛИНА. Социосфера, (3), 23-31.
9. Даны Камилла (2022). ПРЕДПОСЫЛКИ И ИСТОРИЯ СОЗДАНИЯ ПОВЕСТИ ЛО ПУ “ВЫДАЮЩАЯСЯ ЖЕНЩИНА”. Sharq ma'shali / Восточный факел, 14 (1), 33-42. doi: 10.5281/zenodo.7190485
10. Рахматуллаева, Д. М. (2021). 汉语语音及它的教学问题(乌兹别克斯坦学生为例). Современные востоковедческие исследования, 3(1), 6-13.
11. Badalbayev, D. F. O. G. L. (2021). XITOY OG ‘ZAKI NUTQIDA KONSTRUKSIYALI BIRIKMALARNING O ‘RNI VA XUSUSIYATI. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 1(Special Issue 2), 250-255.
12. Юсупова Х. Особенности образования существительных при помощи аффиксов с негативным оттенком в современном китайском языке. American Journal of Social Science and Education Innovations. IMPACT FACTOR: 5.5. (BAK)

- 
13. Zayniddinovna, A. Z. (2022). Rules for Using the Verb in a 把 “Bǎ” Sentence. *CENTRAL ASIAN JOURNAL OF LITERATURE, PHILOSOPHY AND CULTURE*, 3(6), 5-9.
  14. Хашимова, С. А. (2022). ОБРАЗОВАНИЕ ЧИСЛИТЕЛЬНЫХ ПРИ ПОМОЩИ АФФИКСАЦИИ В СОВРЕМЕННОМ КИТАЙСКОМ ЯЗЫКЕ. *World scientific research journal*, 7(1), 20-23.
  15. Хашимова, С. А. (2020). Особенности образования неодушевлённых существительных при помощи суффиксации в современном китайском языке. *Modern Oriental Studies*, 2(2), 34-46.
  16. Abdullayevna, H. S. (2020). Peculiarities of the formation of animated nonsignificant using suffixing in the modern Chinese language. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 10(5), 1504-1511.
  17. Khalmurzaeva, N. T. (2021). Stereotypical Questions In The Organization Of The Process Of Teaching Children By Japanese Mothers. *The American Journal of Social Science and Education Innovations*, 3(05), 513-520.
  18. NS Abdullayevna. 上合组织国家的科学研究: 协同和一体化。上合组织国家的科学研究: 协同和一体化, 87, 0